

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga
huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan
2024-yilda amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida**
H I S O B O T

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan yangi O‘zbekistonda axborot va ochiqlik siyosati bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotgan va bu yo‘nalishda qo‘lga kiritilgan yutuqlar xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanmoqda.

Bu borada qator huquqiy hujjatlar qabul qilinishi fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish, ular faoliyatini baholashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmoni qabul qilinib, unda muhim vazifalar belgilandi.

Farmon ijrosini so‘zsiz ta‘minlash maqsadida, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 2023-yil 8-maydagagi “Jamoatchilik kengashini tuzish to‘g‘risida”gi 233-sonli buyrug‘i qabul qilinib, 15 nafar a’zolardan kengash tarkibi, Nizomi, Korrupsyaga qarshi kurashish hamda Ochiqliknin ta‘minlash bo‘yicha ekspert guruhlari tarkibi tasdiqlandi.

E’tiborli jihatni, Jamoatchilik kengashi a’zolarining yarimidan ko‘pi nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati instituti vakillari ekanishi samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Jamoatchilik kengashi 2024-yilga mo‘ljallangan 10 ta banddan iborat ish rejasini ishlab chiqib, o‘z faoliyatini unga muvofiq amalga oshirishga erishdi. Jumladan, hisobot yilida 2 marotaba kengashning kengaytirilgan, 4 marotaba kengash faoliyati asosiy vazifalari yuzasidan yig‘ilishlari o‘tkazildi.

Kompalens xizmati tomonidan NKMK ishchi-xodimlari ishtirokida bo‘linmalarda korrupsiya va uning salbiy oqibatlari, unga qarshi kurashish, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xatarlarning oldini olish bo‘yicha yil davomida 19 marotaba targ‘ibot-tushuntirish ishlari olib borildi.

Shuningdek, hisobot davrida Gender tenglikni ta‘minlash va xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha Ayollar kengashi raisi S.Nazarova, ekologiya masalalari yuzasidan Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i X.Baqoyev, yoshlar yetakchilari Kengashi raisi S.Rajabovlarning eshituvlari tashkil etildi. Shuningdek, dasturlar ijrosini jamoatchilikka yetkazish yuzasidan “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” dasturi ijrosi bo‘yicha yoshlar yetakchilari Kengashi raisi S.Rajabov, Investitsiya dasturi

ijrosi bo‘yicha Kapital qurilish boshqarmasi boshlig‘i M.Alqarov, Mahalliylashtirish dasturi ijrosi bo‘yicha bosh boshqarma boshlig‘i Y.Danilina, Innovatsiya dasturi bo‘yicha U.Sharafutdinov va boshqa dasturlarining ijrosi bo‘yicha tegishli mas’ul rahbarlarning chiqishlari tashkil etildi.

Hisobot davrida Jamoatchilik kengashining Markaziy, Shimoliy, Janubiy va “Qizilqum” kon boshqarmalarida, Navoiy mashinasozlik zavodi, Zarafshon qurilish boshqarmasi, Geologiya-qidiruv ekspeditsiyalarida yig‘ilishlari tashkil etildi va jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida ishtirokchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Bundan tashqari, “Navoiy KMK” AJ boshqarmasi, Markaziy va Janubiy kon boshqarmalari, 1-gidrometallurgiya zavodi va boshqa bo‘linmalarda ichki idoraviy va qarorlarda ishchi-xodimlari manfaatlari va fikri hisobga olingani, jamoada sog‘lom ishchanlik muhiti, yuksak huquqiy madaniyat va ahloqiylikni ta’minalash, ishchi-xodimlar o‘rtasida Vatanga sadoqat ruhi va qonunlarga bo‘lgan hurmatni oshirishga qaratilgan nazorat, targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.

Shu bilan birga, 2025-yilning yanvar oyida Jamoatchilik kengashining joriy yilgi rejasi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazilib, aniq vazifalar belgilab olindi va ayni paytda shu asosida ishlar olib borilmoqda.

**“NKMK” AJ huzuridagi
Jamoatchilik kengashi,
2025-yil 5-yanvar.**